



TOHIR MALIKNING ASARLARIDA ONOMASTIK BIRLIKLAR QO`LLANILISHINING USLUBIY TAHLILI

Hamroyeva Maftuna Rasulovna

Buxoro davlat universiteti

Аннотация: Ushbu maqolada yozuvchi uslubidagi antroponimlarning o`ziga xos xususiyatlari, badiiy asarda tutgan o`rni haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, ijodkor hikoyalarida antroponimlarning berilishi misollar vositasida ochib berilgan.

Kalit so`zlar: antroponimlar, badiiylik, badiiy asar, kishi nomlari, uslubiyat, badiiy uslub, adabiy til, badiiy til, borliq, familiya, and taxallus.

Badiiy asarning tilini tekshirish shakl va ma`no munosabatini o`rganish demakdir. Asar g`oyasining muhimligi va undagi qahramonlarning ko`p qirra bo`lishi asar tilining boyishiga va mukammallashuviga imkon beradi. Zukko yozuvchi asar qahramonlarining tilini tipiklashtiradi: asarning har bir qahramoni o`z xulq-atvori, muayyan davr muhiti va dunyoqarashiga mos tilda so`zlashadi, yozuvchi ma`lum voqealarni tasvirlaganda bir xil vositalardan foydalansa, boshqa hodisalarni tasvirlashda o`zgacha til vositalarini qo`llaydi. Shuning uchun ham asar qahramoni tilining tipiklashuvi, alohidalashuvi adabiy asar tilining xarakterli belgilaridan biridir. Yozuvchi nima sababdan biror voqea-hodisani, qahramon xatti-harakatini aks ettirishda biron so`z, ibora va uslubiy vositadan foydalanish sababini o`rganish asar tilini tekshirishning yana bir tomonidir.

Zamonaviy tilshunoslikning eng munozarali va dolzarb masalalaridan biri "matndagi ism" muammosi, chunki ism s`z, ammo o`ziga xos, individual ravishda ma`lum bo`lgan so`zdir. Har bir antroponimik birlik (ism, familiya, otasining ismi, taxallus va boshq.) katta ijtimoiy-tipologik va badiiy vizual imkoniyatlarga ega.

O`zbek tilida shakllanish, rivojlanish va ishlash nuqtayi nazaridan to`g`ri nomlarni tahlil qilgan antroponimist olimlarning ko`plab tadqiqotlari shundan dalolat beradi. Ismlar har qanday tilning so`z boyligida muhim o`rin tutadi. Ilm-fanning turli sohalaridagi tadqiqotchilar azaldan ularning o`ziga xos xususiyati bilan qiziqishgan, shu jumladan tarixchilar, matematiklar, faylasuflar, geograflar (Dekart, Platon, Lokk, Arestotel) va, albatta, antroponimiya tarixi rivojlanishi har doim diqqat markazida bo`lgan tilshunos olimlar antroponimlarning xususiyatlari va usullari, badiiy matndagi ismlarni ishlashning statistik xususiyatlari.

Adib Tohir Malik "Zulm" hikoyasi bosh qahramonlaridan birining nomini Olim deb nomlaydi. Olim arabcha bilimli, bilimdon, donishmand degan ma`noni bildiradi. Bu ism qahramon jismiga ham, ruhiyatiga ham mos emas. Ijodkorning qahramonga nega bu ismni qo`yganligini quyidagi parcha orqali izohlash mumkin:

"...hikoyada uning ismini "Olim" deb qo`ydimki, shu ismli kishilardan uzr so`rayman."

- ✓ "Esim joyida. Tomi ketganlardanmasman. Xotinimning azob chekishiga xotirjam qarab turolmayapman. Bu azoblardan... nima desam ekan... Chet elda ruxsat beradigan qonun bor ekan-ku? Xotinimning azobdan qutulishini istayman. Bir uxlasa-yu..."
- ✓ "Basharang qursin, vahshiy! Benomus! Odammisan o`zing!? Yer yutsin seni!!"



✓ “Hm... - Asilov yana stolni cherta boshladi: - Olim... Olim... Zolim...”

Demak, bu ism zolim soʻzidan kelib chiqib kinoya sifatida qahramonga qoʻyilgan. Undagi tubanlikni, zolimlikni yozuvchi hikoya soʻnggida quyidagicha ifodalaydi: “Endi siz bu voqea qayerda sodir boʻlgan, deb soʻrarsiz? Qayerda sodir boʻlganining nima ahamiyati bor? Bunday razillik har birimizning mahallamizda sodir boʻlishi mumkin-ku? Faqat biz, bandalar bunga eʼtiborsizmiz, loqaydmiz. Endi bundaylarning jazosi qanaqa boʻladi, dersiz? Jazosi tayin: bundaylar qora niyatlarini, ablahliklarini odamlardan yashirishga uringanlari bilan Yaratgan Allohdan yashira olmaydilar. Shunday ekan, ularga doʻzax azobi tayyorlab qoʻyilgan.”

Shu qahramonimiz ayolining ismi Munisa ham arabcha doʻst, oʻrtoq, sirdosh, sodiq doʻst degan maʼnoni bildiradi. U haqiqatdan ham eri uchun ogʻir turmush yoʻllarida sodiq doʻst. Buni quyidagi parcha orqali koʻrish mumkin:

“ – Adajon sizlarni ayaganlar-da, – dedi Munisa uni bagʻriga tortib. – Qiz bola adasiga mehribon boʻlishi kerak. Adajon koʻchadan kelganlarida darrov poyabzallarini tozalab, chetga olish kerak. Qoʻl artishlariga toza sochiq berish kerak. Ishga ketayotganlarida, “adajon yaxshi borib keling”, deyish shart, deb oʻrgatuvdimku? Sizlar uyda boʻlmasangiz adajonni kim ishga kuzatadi, kim salom berib kutib oladi?”

Bu obrazni oʻzbekning oʻzbekning haqiqiy munis ayoli deb atash mumkin:

- “Shirin orzular bulutida uchayotgan lozar ayolga bu dard balosi qaydan yopisha qoldi?”
- “Doimo toʻyda yuring boʻlmasa, -Munisa shunday deb jilmayishga harakat qildi. Bu jilmayish yuzidagi maʼyuslik pardasini koʻtara olmadi”.
- “Risalat koʻz oʻngida tobora soʻlib borayotgan bu xushsurat juvonga ich-ichidan rahmi kelayotgani uchun hadeb dardini oʻylayvermasin, degan oʻyda shu kabi gaplari bilan dalda berishga urinayotgandi”.

Hikoyada shifokor Davron Asilov asosan familiya bilan tilga olingan, bu esa oʻz navbatida obrazning kasb-kori bilan bogʻlanadi. Fikrimizni quyidagi parcha dalillaydi:

- “Doktor Asilov uni oʻrnidan turib kutib oldi”.

Bu ism ham arabcha boʻlib “davr sursin, umri shodon boʻlsin, baxtiyor oʻtsin” degan maʼnoni ifodalaydi. Haqiqatdan ham qahramonimizning nomi davr surishga loyiq:

- ✓ “Sen.. Asilov degan doʻxtirning dovrugʻini avval ham eshitganmiding? ”
- ✓ “Ha...shunaqami?! Menga qara bola! – Asilov shunday deb shart oʻrnidan turdi-da, Olimni yoqasidan oldi. –Sen Asilov pastkash odam, arzon-garovga sotiladi, deb eshituvmidingmi?”
- ✓ “Asilov pulni gʻijimlab uning basharasiga otdi. Sobit yerga sochilgan pullarni olib, shoshilmasdan taxlab, choʻntagiga soldi-da, gap ohangini oʻzgartirmay xayrlashdi”.

Shuningdek bu obraz familiasiga loyiq, ota-bobolariga munosib avlodir.

Munisaning qizlari Sojida, Aqida ham ismlariga munosib qizlar, bu ismlarning maʼnosi:

Aqida arabcha “qatʼiy ishonch, ixlos, qizni yashab ketadi deb qatʼiy umid qilish”.

Sojida ham arabcha “sajda qiluvchi, xudojoʻy qiz, taqvodor”.

Bu ismlarning asardagi xarakterli oʻrinlaridan parchalar:

- “Aqida “oyimga nima boʻldi?” deb soʻragan taqdirda ham toʻgʻri javob ololmasligini bilgani



uchun ham bobosini savolga tutmadi”.

- “Aqida aybini bo`yniga olgan kabi boshini egdi”.
- “Sojida adajonimizga tortyapti, -dedi Munisa mahzun jilmayib. – Ozgina o`jarligi bor. O`zinikini ma`qul deb turib olsa, fikridan qaytarish qiyinroq”.

Ayolning otasi Sharif qizi uchun haqiqiy sharafiga ega ota, buni quyidagi o`rinda ko`rish mumkin:

- ✓ “Sharif bu gapdan taskin olib, qaddini ko`tardi. Doktor Asilov yaralangan ko`ngilga malham bo`luvchi so`zlarni aytib, uni sarosima to`ridan qutqarishga uringani bilan, oyoqni kesish haqidagi gapni kuyoviga yetkazish oson emasdi. Qizining xastalanishiga o`zini aybdorday his qilib, battar qiynaldi”.
- ✓ “Ota-ona farzandiga mehr berishi mumkin, yurak qo`rini ham berishi mumkin... Oyog`ini yoki qo`lini berishi mumkin emas... Oyoq yoki qo`l nima ekan, bu so`zlarni aytgandan ko`ra jonini berib yuborsa osonroq kechardi...”
- ✓ Munisaning hamxonasining nomi Risolat arabcha elchilik, payg`ambar avlodiga mansub qiz deganidir. Bu obraz o`z samimiyligi, andishaliligi bilan payg`ambarimizga munosib avlod sifatida ko`rsatilgan:
- ✓ “KO`p maqtalgan odamning yaxshi fazilatlari kam bo`lishini bilgan Risolat hamxonasining gaplarini indamay eshitdi”.
- ✓ “Qo`ying-e, sizga hech narsa bo`lmaydi, yaxshi nafas qiling. Xudo, “yaxshilikni istagan kishiga yaxshilikni beraman, kim yomonlikni o`ylasa yomonlikni beraman”, degan ekan”.
- ✓ Bundan tashqari bu obrazga Munisa eriga yetkazishi uchun vasiyatini aytadi, Risolatni o`zi va eri o`rtasidagi elchilik qilishini so`raydi:
- ✓ “Opajon, sizdan iltimosim bor, meni olib chiqib ketishgandan keyin adajonimizga aytib qo`ying: agar bir narsa bo`lsam... Adajonimizga aytib qo`ying, iltimos, men u kishidan mingdan-ming roziman. Yana ayting-ki, adajonimiz “odamlar fisq-u fasod qiladi”, deb xijolat tortmay, kun sanab yurmay uylansinlar...”

Olimning ikki do`sti Sobit va Hamdam bo`lib, Sobit arabcha mustahkam, mahkam yoki kelishgan, xushbichim, chiroyli deganidir. Ijodkor bu obrazni tashqi ko`rinish jihatdan tasvirlamagan, ammo uning jirkanch bo`lsa-da o`z fikr va niyatlariga juda mahkam yopishib olgan obraz sifatida tasvirlagan. Uni hattoki do`stlari ham buy o`ldan qaytara olmaydi:

- “Sobit yana raqam termoqchi edi, Olim yana telefoni ustiga kaftini qo`ydi. Sobit o`rnidan turib sal nari bordi-da, kerakli raqamini terdi. Javob eshitilgach, yuzi mamnunlikdan yorishdi”.

Hamdam ismi esa fors-tojikcha bo`lib, do`st, o`rtoq, sodiq, vafodor do`st, otasiga, boshqa bolalarga do`st, esh bo`lib yursin degan ma`noni ifodalaydi. Asarda quyidagi o`rinlarda esa ism ruhiyat bilan birlashgan holatlarni ko`rish mumkin:

- “Boshqa iloji yo`q ekanmi? – dedi Hamdam, mehribonlik bilan. Keyin dalda berish maqsadida qo`shib qo`ydi: - do`xtir uzil-kesil shunaqa demagandir, boshqa shifosi bordir. Qaynotang sal oshirvorgandir. ”
- “Ichingda gap saqlamay, ayt, oshna. Shunaqa paytda yoningda turmasam, do`st demasang ham bo`ladi”.



Doktor Asilovning yordamchisi Diyora halolligi bilan haqiqiy o'zbek kishisi, vatanining faxrli farzandi siymosi sifatida tasvirlangan:

✓ “Har qanday holatda g'azabni yenga olish odam uchun go'zal fazilat sanalishi Diyoraga ham ma'lum”.

Tohir Malikning “Voy, onajonim” hikoyasidagi Latifa obrazi orqali hayotdagi ismi jismiga mos iborasining isbotini ko'rishimiz mumkin:

✓ “Yonida xushbichim, qora qoshlari terilgan, ustidagi kiyimida hayo yo'qligi inobatga olinmasa, latofatli bir qiz”.

Bosh qahramonlardan biri Zokir ismi esa arabcha yodga oluvchi, eslovchi, xotirlovchi, ya'ni ollohga sig'inuvchi deganidir. Darhaqiqat u yaqinlariga mehribon, ollohning haqiqiy solik farzandi ekanligi bilan ismlar ruhiyatga ta'sir etadi degan fikrimizni isbotlaydi:

- “Onasi orzusidagi baland martabaga yetishmasa-da, qo'ni-qo'shni, qarindosh-urug'larning yumushlarini beminnat bajarib berib, hurmatga ega bo'ldi”. 19b
- “Zokir onasiga ham, akasiga ham juda-juda mehribon. Onasini kipriklarid ko'tarib yuray deydi”.
- “Zokir o'qiyman, deb shaharga ketib, onasini yolg'iz qoldirishni istamaydi”.
- “Zokirni yo'tal tutdi. Har yo'talganida ichaklari buralib azob bera boshladi. Ichki bir ovoz “qo'shnilarni yordamga chaqir”, deydi. Boshqa bir ovoz hayqirib, “Yo'q! Sening xaloskoring qabrda yotibdi. Bir o'zi... bir o'zi qorong'i go'rda yotibdi. Uning oldiga bor. Bu kecha birga bo'l. Birgina kecha...” deydi. U ikkinchi ovozga quloq tutdi – qabriston tomon yura boshladi. Bir kecha onasi poyida yotishni ixtiyor etdi...”

Hikoyadagi bosh qahramonlardan yana biri Nazir arabcha ogoh qiluvchi, azoblardan ogohlantiruvchi, Nazir nomi Muhammadning sifatlaridan biri degan ma'noni bildiradi. Tadqiq natijasida shu aniqlandiki, bu qahramonga ism yozuvchi tomonidan nominativ vazifa uchungina berilgan. Demak, ismlar qahramonga ijodkor tomonidan nominativ vazifa sababli ham tanlanishi mumkin ekan.

Tohir Malikning “Oqibatul-amr” hikoyasida debocha sifatida bir hikoya keltiriladi. Unda bir-biridan norozi bo'lgan ota va o'g'il arzi beriladi. Bunda ota arzi o'g'li tomoni rad etiladi. O'g'il otasidan unga qo'yilgan ism-chun norozi ekanligini aytadi: “Tug'ilganim hamon otamning ko'zlari sahroning qora qo'ng'iziga tushgan ekan, shu bois, odat bo'lib qolgan taomilga ko'ra menga o'sha qo'ng'izning nomini berib “Jual” deb ism berdilar. To hanuz odamlar meni qo'ng'izga o'xshatib mayna qilarlar”.

Bu bilan ijodkor ism qo'yishdagi urf-odat tamoyili haqida biroz o'ylab ko'rish kerak demoqchi bo'lgan, albatta. Shuningdek farzandga ism qo'yish haqida asarning bir o'rnida adib bu masalaga quyidagicha izoh beradi: “Avvalo ota bo'lmish soliha, pokiza, nasli-nasabi toza ayolga uylanmog'i kerak. Toki, farzand o'z onasining o'tmishidan uyalib yurmasin. Ikkilamchi, ota farzandga go'zal ism qo'ymog'i lozim. Toki, farzand o'z ismidan xijolat chekib yurmasin...”

Bundan tashqari, hikoyada Zubayda, Nargiza, Sarvixon, Murod, Sardor, Ko'paysin nomli obrazlar uchraydi. Bu ismlarning ma'nolari E.Begmatovning “O'zbek ismlari” kitobida quyidagicha izohlanadi:

Zubayda arabcha ayolning eng yaxshisi, a'losi.



Nargiza fors-tojik va yunoncha nargis (bo`tagul)dek nozik zebo qiz.

Sarvixon fors-tojikcha tikka o`sadigan, xushqomad daraxt, kelishgan xushqomad qiz. Murod arabcha murod-maqsdali yoki orzu qilingan, qo`msalgan bola.

Jur`at arabcha jasoratli, matonatli, shijoatli. Sardor fors-tojikcha yetakchi, boshliq; urug` yoki qabila boshlig`i, lashkar boshlig`i, qo`mondon.

Ko`paysin o`zbekcha farzandlarimiz safiga qo`shilsin, bolalarimiz yana ham ko`paysin. Darhaqiqat, bu ism qahramonga shu ma`no qirrasini ko`rsatish uchun tanlangan: "Otam rahmatli bolani yaxshi ko`rarkanlar. Bosh farzand bo`lganim uchun Xudodan ko`p bola so`rab, menga "Ko`paysin" deb ot qo`ygan ekanlar. Xudo rostdanam ko`p bola beribdi-yu, lekin hammasini bitta-bitta olibdi.

Adibning "Oxirat" hikoyasida bosh qahramonga Muhammadali deb nom beradi. Ijodkorga bu nom qahramonning ruhiy olamini ochib berish uchun dasturul-amal bo`lgan:

- ✓ "Dadasi rahmatli, "ro`za paytida onangni kunduzi emmay qo`yarding, onang seni betahorat emizmagan sira. Emib bo`lguningcha "Yosin"ni o`qib o`tirardi", der edi".
- ✓ "Bu tun yuragi bezovta bo`la boshlagach, kalmia keltirdi, istig`for aytdi. Yuragi bir me`yorda urib, nafas siqishi chekingach, qullik qilish damlarini uzaytirgani, yana kattami-kichik xayrli ish qilib qolish baxtini bergani uchun Allohga hamd aytdi".
- ✓ "Garchi Qizil mo`ylovning tuhmati tufayli ming bir baloga uchragan bo`lsa-da, mo`minga xos fazilatiga xiyonat qilmaydigan Muhammadali ozodlikka chiqib, qishlog`i tuprog`iga qadam qo`ygan onidayoq uni kechirgan edi. Gina saqlab, arazlab yurishi mumkin emasdi".

Uning chin musulmon bo`lishida nafaqat haqning, balki ota-onaning ham sa`y-harakatlari hissasi bor edi, Ular, avvalambor, farzandlarini ismiga monand qilib tarbiyalashadi: "Otasi urushga ketgach, bir-ikki kuno`qishdan qolgan edi, onasidan tanbeh eshitdi: "Urush bugun bo`lmasa ertaga o`tadi-ketadi. O`qishsiz o`tgan kuning, boy bergan vaqting qaytmaydi. Vaqtning isrofi uchun qiyimatda hisob berasan. Allohning huzurida uyalib qolmay desang, hart un bir oyatni yi bir hadisni o`rgan", deb yarim tunda ustozinikiga jo`natdi".

Nihoyat bu obraz ismiga munosib iz qoldirdi: "Muhammadali nikohlagan odamlarning farzandlari janozaga saf tortdilar. Muhammadali janozasini o`qigan marhumlarning farzandlari Allohga munojot etib, uning haqqiga duo qildilar. Muhammadali qulog`iga azon aytgan musulmon farzandlari uning tobutini yelkalariga oldilar".

Yozuvchining "Sunami" hikoyasi qahramoni Naima ismi arabcha baxtli, iqboli baland qiz deganidir. Darhaqiqat, bu obraz o`zicha iqboli baland qiz: "Turmushga chiqmadi. Institutda o`qib yurganida bahonasi tayyor edi. Keyin aspiranturani bitirib olay, dedi... Turmushga chiqmayotganligini asoslaydigan tayinli bahonasi yo`q edi. Yigit va qizning turmush qurishi tabiiy ehtiyoj deb izohlansa-da, u ham o`sha "tabiiy ehtiyoj"dan bebahra bo`lmasa-da, erga tegishni, hayotini kim bilandir bog`lashni istamasdi. Uning o`z olami bor edi va bu olamida yolg`iz yashashni xohlardi."

Yana bir obraz Matluba arabcha so`rab, iltijo qilib erishilgan, xohlangan, orzu qilingan qiz. Matluba haqiqatdan ham Naimaning orzu qilgan qizi:

"Opangning qizini o`zing bag`ringga ol. Tarbiya qil. Keyin, istasang, shu uyga ichkuyov qilarsan", deganida quvondi. Jinagalak sochli, kipriklari uzun-uzun, tili shirin jiyanini o`zi ham yaxshi ko`rardi".



Tohir Malikning “Kurort” hikoyasi qahramoni Ahmadboy ismi arabcha allohga ko`p hamd-u sanolar aytuvchi kishi yoki maqtovgga, olqishga sazovor. Bu nom Muhammad (s.a.v) sifatlaridan biridir. Bu obrazdagi kattalarga bo`lgan hurmat haqiqatdan ham olqishga sazovor:

- “Ha... darrov yetib keldimi? – Ahmad brigadier “katta otam “bemaslahat ish qipsan”, deb ranjiyaptilar”, degan xayolga borib, kulimsiradi. – Hali xom gap bu, katta ota, sizdan beso`roq bir yoqqa borarmidim?”

Bundan tashqari hikoyada quyidagi nomlarda ham obrazlar uchraydi:

Samad arabcha abadiy, boqiy, mangu turuvchi. Bu nom Alloh Taoloning sifatlaridan biri.

Abbos arabcha aynan: qovog`i soliq, badjahl, beshafqat yoki dovyurak, jangovar. Muhammad payg`ambar tog`asining nomi. Doniyor fors-tojikcha yaqinlar, do`stlar yoki bilimli, dono yoki, qadimiy yahudiyalar fikricha, Allohning ehsoni, sovg`asi, marhamati.

Nazira arabcha va`da qilingan va guldek zebo qiz.

Bu ismlar ham obrazlarni nomlash vazifasini bajaribgina qolmay, ulardagi muayyan bir jihatlarni ifodalash uchun qo`llangan. Jamiyatimizda shunday antraponimlar borki, ular biroz o`zgargan ko`rinishlarda qo`llaniladi. Mana shunday nomlardan biriga hikoyadagi Matqobul antroponimini misol qilish mumkin. Bu ism aslida Muhammad va Qobil ismlarining birlashgan ko`rinishidir. Bu ism tarkibidagi Muhammad arabcha maqtovgga, olqishlarga sazovor, Qobil esa arabcha iste`dodli, qobiliyatli; kuchli qudratli yoki yuvosh, tarbiya ko`rgan yoxud orzu va tilaklarimiz bajo bo`lib berilgan bola deganidir.

Xulosa o`rnida shuni aytishimiz mumkinki, Tohir Malik hikoyalari orqali asarda antroponimlar shaxs va jamiyat munosabatlarini ko`rsatuvchi detal bo`la olishi mumkin. Ulardan o`rinli foydalanish asar tilini jonli xalq tili bilan yaqinlashtiradi, ularni milliylikni ko`rsatuvchi qurol sifatida baholashimiz mumkin.

Tohir Malik hikoyalari, leksik jihatdan boy bo`lib, hikoyalar tilida xalq ijodi, tafakkuri, ong-shuurining izlari saqlanib qolganligi ko`rinadi.

Hikoyalardagi antroponimlarda tasvirlanayotgan davr, zamon tarixi, holati mujassamlashtirilgan, ular nafaqat nominativ, balki stilistik vazifani ham bajargan.

Ijodkorlarning turli davrlarda yaratgan asarlari til jihatidan bir-biridan farqlanadi. Ijtmoy hayot taraqqiyoti, undagi o`zgarishlar, yozuvchi dunyo qarashining boyishi va o`zgara borishi yaratgan adabiy asarlarning tiliga ta`sir etmay qolmaydi. Shuning uchun ham badiiy asar tili o`rganilar ekan, shu asarni yozuvchining boshqa asarlari bilan qiyoslash, o`ziga xos xususiyatlarini aniqlash zarur. Adib ijodiy tilini o`rganishda shu davr tarixiy sharoitini ko`rib chiqish bilan birga yozuvchining siyosiy-adabiy hayotdagi qaysi yo`nalishga mansubligi, uning dunyoqarashi va zamondoshlarining hamda o`tmish ijodkorlarining unga bo`lgan ta`sirini, shuningdek, asarning yozilish jarayonini e`tibordan chetda qoldirib bo`lmas ekan.

Ko`rib o`tganimizdek til juda serqirra hodisa. Shuning uchun ham tilni xalq hayoti bilan bog`liqlikda o`rganish lozim. Buning uchun bizga birinchi navbatda badiiy asarlar yordam beradi. Badiiy asardagi onomastik birliklar, xususan, antroponimlar ham mana shu millat, xalq hayoti va o`tmishidan olingani, unda o`z aksini topadi. Xuddi shuning uchun ularni o`rganish va tadqiq qilish muhimdir. Bu orqali biz o`z milliyligimiz, tariximizni bilish va anglashda yana bir qadam oldinga siljiymiz.

Tohir Malik asarlari matnidagi antroponimlarning ma`no va mazmuni, etimologiyasi hamda uslubiy xususiyatlarni yanada chuqur va keng ko`lamda o`rganish navbatdagi vazifalarimizdan



biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Бегматов Э. Ўзбек исмлари. 2-нашри. – Тошкент: «O`zME», 2007. 604 б.
2. Қиличев Э. Ўзбек тили ономастикаси. – Т.: «Бухоро», 2004.
3. Rasulovna, H. M. (2021). Anthroponymic forms in the text of artistic work (On the example of Tahir Malik's work). *Middle European Scientific Bulletin*, 10.
4. Rasulovna, Hamroyeva Maftuna. "Anthroponymic forms in the text of artistic work (On the example of Tahir Malik's work)." *Middle European Scientific Bulletin* 10 (2021).
5. Rasulovna H. M. Anthroponymic forms in the text of artistic work (On the example of Tahir Malik's work) // *Middle European Scientific Bulletin*. – 2021. – Т. 10.
6. Hamroyeva M. R. The ways of using integrative approach in primary school lessons // *Фундаментальные и прикладные научные исследования: актуальные вопросы, достижения и инновации*. – 2021. – С. 198-200.
7. Hamroyeva, Maftuna Rasulovna. "The ways of using integrative approach in primary school lessons." *Фундаментальные и прикладные научные исследования: актуальные вопросы, достижения и инновации*. 2021.
8. Hamroyeva, M. R. (2021). The ways of using integrative approach in primary school lessons. In *Фундаментальные и прикладные научные исследования: актуальные вопросы, достижения и инновации* (pp. 198-200).
9. Abdullayeva F. Methodological possibilities of organization of primary school technology lessons with pedagogical technologies // *центр научных публикаций (buxdu.uz)*. – 2021. – Т. 8. – №. 8.
10. Abdullayeva F. Ta'lim tizimi sifatini oshirishda pisa va timss kabi xalqaro tadqiqotlarning roli // *центр научных публикаций (buxdu.uz)*. – 2021. – Т.3. – №. 3.
11. Курбанова Ш. Н., Абдуллаева Ф., Очилова Г. О. Педагогическая технология – целостная система образовательного процесса // *новые педагогические исследования: сборник статей IV*. – 2021. – С. 20.
12. Qurbonova S. N., Abdullayeva F. Tarbiya darslarida interfaol metodlardan foydalanish // *Scientific progress*. – 2021. – Т. 2. – №. 6. – С. 1030-1035.
13. Abdullayeva F. Methodological possibilities of organization of primary school technology lessons with pedagogical technologies // *центр научных публикаций (buxdu.uz)*. – 2021. – Т. 8. – №. 8.
14. Abdullayeva F. Ta'lim tizimi sifatini oshirishda pisa va timss kabi xalqaro tadqiqotlarning roli // *центр научных публикаций (buxdu.uz)*. – 2021. – Т.3. – №. 3.
15. Nurillayevna, Abdullayeva Feruza. "Teaching Scientific Popular Articles in Mother Nili and Reading Literacy Courses." *European journal of innovation in nonformal education* 2.3 (2022): 47-50.
16. Abdullayeva F. Matematika darslarida interfaol metodlardan foydalanish // *Центр научных публикаций (buxdu.uz)*. – 2021. – Т. 3. – №. 3.
17. Kodirova S. A. Ideological and artistic features of «zarbulmasal» // *Theoretical & Applied*



- Science. – 2020. – №. 10. – С. 318-320.
18. Abdurakhimovna K. S. Idealistic Study of Proverbs //International Journal on Integrated Education. – Т. 3. – №. 11. – С. 201-202.
 19. Kodirova S. A. Idealistic study of proverbs in “zarbulmasal” of gulkhani //Scientific reports of Bukhara State University. – 2021. – Т. 5. – №. 1. – С. 170-179.
 20. Кодирова С. А. Жанровые особенности " зарбулмасала" //современная наука: актуальные вопросы, достижения и инновации. – 2021. – С. 97-99.
 21. Abdurakhimovna K. S., Dilchiroy A. Ancient proverbs. – 2021. 1036-1040
 22. Poetics of Proverbs KS Abdurakhimovna European journal of innovation in nonformal education 2 (2), 303-307
 23. Main Subject way of" Zarbulmasal" KS Abdurakhimovna European journal of innovation in nonformal education 2 (2), 286-290
 24. Xayrulloeva D. System of Creative Exercises and Tasks in Primary School Mother Tongue Textbooks //Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – Т. 7. – №. 7.
 25. Xayrullayeva D. N. Q. Boshlang'ich sinf ona tili darsliklaridagi ijodiy mashq va topshiriqlar tizimi //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 7. – С. 1235-1242.
 26. Xayrulloeva D. The gradual development of native language textbooks for grades 3-4 in primary school //центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – Т. 7. – №. 7.
 27. Nurova Y.U. Etnolingvistika va etnologiya munosabati. Til va adabiyot ta'limi. T., 2002-y 12-son. – 43-45 b.
 28. Y.U.Nurova. Ethnic Expressions of Uzbek folk names. Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR) ISSN: 2278-4853 Impact Factor: SJIF 2020 = 6.882 Vol 9, Issue 5, May, 2020 Spl Issue.DOI NUMBER: 10.5958/2278-4853.2020.000173.1 – B.316-320.
 29. Y.U.Nurova. The Relationship of Ethnology and Ethnography. Central Asian Journal of literature, philosophy and culture. Volume: 02 Issue: 10 | October 2021.
Y.U.Nurova. Homonymy of ethnonyms in uzbek folk parems. European Scholar Journal (ESJ) Available Online at: <https://www.scholarzest.com> Vol. 2 No. 4, April 2021, ISSN: 2660-5562.
 30. Y.U.Nurova. Theoretical study of ethno-linguistics in world linguisti. EUROPEAN JOURNAL OF LIFE SAFETY AND STABILITY (EJLSS) ISSN 2660-9630 www.ejlss.indexedresearch.org Volume 15, 2022